



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 28-33 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RESPUBLIKAMIZ SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQLAR TAHLILINING NAZARIY MASALALARI



Djalilov Rahmonkul Hamidovish

Ph.D, Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

ORCID: 0009-0002-1029-1027

e-mail: djalilovrahmonkul@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq tizimida xorijiy va mahalliy iqtisodshi olimlar tomonidan korxonaning soliq hisoboti va uning ishonshiligidini tasdiqlash, davlat organlari tomonidan qo'shimsha hisoblanishi mumkin bo'lgan soliqlar va jarimalar shaklida byudjetga to'lovlar maqsadida mustaqil tekshirishlarning huquqiy va nazariy jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek soliq tahlili to'g'risida mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlari: soliq tizimi, soliq nazorati, soliq hisoboti, soliq tahlili, soliqlar va jarimalar, auditning raqamli transformatsiyasi, soliqqa tortish, auditorlik tashkilotlari.

Abstract. This article explores the legal and theoretical aspects of independent inspections in the tax system by foreign and domestic economists for the purpose of confirming the tax report of the enterprise and its reliability, payments to the budget in the form of taxes and fines that can be considered additional by state bodies. Also developed an author's definition of tax analysis.

Key words: tax system, tax control, tax reporting, tax analysis, taxes and penalties, digital transformation of audit, taxation, audit organizations.

Аннотация. В данной статье рассмотрены правовые и теоретические аспекты независимых проверок налоговой отчетности предприятия иностранными и отечественными учеными-экономистами в налоговой системе с целью подтверждения ее достоверности, платежей в бюджет в виде налогов и штрафов, которые могут быть дополнительно начислены государственными органами. Также разработано авторское определение налогового анализа.

Ключевые слова: налоговая система, налоговый контроль, налоговая отчетность, налоговый анализ, налоги и штрафы, цифровая трансформация аудита, налогообложение, аудиторские организации.

Kirish. Hozirgi sharoitda zamonaviy auditning nazariy muammolari ko'p qirrali bo'lib, audit amaliyoti moliyaviy nazoratda o'zining asosiy rolini bajarishda davom etishini ta'minlash uchun nozik tushunchani talab qiladi. Asosiy muammo an'anaviy audit metodologiyalarini texnologik uzilishlar, transchegaraviy operatsiyalar va real vaqt rejimida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish zarurati bilan ajralib turadigan tez rivojlanayotgan biznes talablari bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

Soliq tahlili soliq qonunshiligi va normativ hujjatlarni shakllantirish jarayonida muhim o'rin tutadi. U daromadlarni samarali boshqarishga yordam berib, adolatli va

barqaror soliq tizimini yaratishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida soliqqa tortishning tabiati tobora o'zgarib bormoqda. Shu bois, samarali va adolatli soliq siyosatini shakllantirish doimiy ilmiy tahlil va izlanishlarni talab etmoqda.

Xalqaro amaliyotda soliq auditini o'tkazishda tahliliy amallardan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi.

Tahlil usullari 520-sonli xalqaro audit standartlarida (AXS) moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni o'rganish orqali moliyaviy ma'lumotlarni baholash vositasi sifatida belgilanadi. «Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik sub'yekti va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholashning analitik usullari 315-sonli AXSda belgilangan»[1].

Amaliyotda auditning xalqaro standarti (International Standards on Auditing (ISAS)) №500-«Auditorlik dalillari», №501-«Auditorlik dalillari-muayyan moddalarni maxsus ko'rib chiqish», №505-«Tashqi tasdiqnomalar», №520-«Tahliliy tartib-taomillar», №530-«Auditorlik tanlash», №540 «Hisoblab chiqilgan baholar, shu jumladan haqqoniy qiymat bo'yicha hisoblab chiqilgan baholar va ular bilan bog'liq ochib beriladigan ma'lumotlar», №550-«O'zaro bog'liq tomonlar» va №580-«Yozma bayonotlar» nomli standartlardan foydalaniladi. Yuqoridagi standartlarda auditor tomonidan mulohazali xulosa shakllantirish maqsadida tegishli auditorlik dalillarini olishi kerak, ushbu ko'rsatkichlar auditorlik xulosasi ushun asos bo'ladi xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Soliq yukini samarali boshqarishda soliqlarni rejalashtirish muhim o'rin tutadi. Soliq to'lovchilar amaldagi soliq qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali o'z faoliyatlariga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan chegirmalar, soliq kreditlari hamda turli imtiyozlarni aniqlashlari mumkin. Bu esa ularga umumiy soliq majburiyatlarini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikka erishish imkonini yaratadi.

Analitik protseduralar tashqi audit jarayonida ishonchli dalillar manbai hisoblanadi. Auditorlar ushbu usullar yordamida moliyaviy va tegishli nomoliyaviy ma'lumotlardagi muhim tendentsiyalar hamda o'zaro bog'liqliklarni aniqlaydilar. Olingan ma'lumotlar byudjetlar, prognozlar, tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar va korxonaning avvalgi yillardagi natijalari bilan taqqoslab tahlil qilinadi. Shu orqali auditor ehtimoliy xatarlar, noqonuniy yoki noo'rin holatlarni erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etish choralari belgilash imkoniga ega bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda soliq tahlilining nazariy masalalarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

M.Davisning ta'kidlashicha, soliq tahlili va soliqni rejalashtirish soliq majburiyatlarini minimallashtirishda yonma-yon ketadi. Soliq qonunlari, me'yoriy hujjatlar va qarorlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali soliq to'lovchilar o'zlarining moliyaviy maqsadlariga mos keladigan soliqni rejalashtirish imkoniyatlarini aniqlashlari va soliq yukini samarali kamaytirishlari mumkin. Ushbu sinergik yondashuv soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini faol boshqarish va soliq to'lashdan keyingi natijalarni optimallashtirish imkonini beradi[3].

M. Davis o'zining tadqiqotlaridan birida soliq rejalashtirishning strategik ahamiyatini hamda soliq tejash imkoniyatlarini aniqlashda keng qamrovli soliq tahlilining

hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqotchiga ko'ra, soliq tahlili soliq to'lovchilarga soliq yukini samarali tarzda kamaytirish maqsadida daromadlarni kechiktirish, chegirmalarni tezlashtirish va mavjud soliq imtiyozlaridan foydalanish kabi soliq rejalashtirish vositalarini aniqlash va baholashda muhim yordam beradi.

Shuningdek, u soliq tahlilining turli moliyaviy operatsiyalarning soliq oqibatlarini anglashdagi ahamiyatini ta'kidlab, uning yordamida soliq to'lovchilar soliq natijalarini optimallashtirish va umumiy soliq majburiyatlarini minimal darajaga tushirishga qaratilgan asosli va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lishlarini qayd etadi[4].

S.Li empirik tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqadi va soliq tahlili kichik biznesni soliqqa tortishda muhim rol o'ynashini aniqlaydi. Soliqlarni prognozlash, soliqqa rioya qilish va soliq imtiyozlaridan foydalanish kabi soliqlarni tahlil qilish usullarini qo'llash orqali kichik korxonalar soliq yukini kamaytirishi va moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkin. Ushbu dalillar soliq tahlili kichik biznes egalari ushuni soliq majburiyatlarini samarali boshqarishda qimmatli vosita ekanligini ko'rsatadi[5].

Evropada soliq tahlili metodologiyasi soliq siyosatining samaradorligini baholash va oshirishga asoslangan tadqiqotlar mavjud bo'lib, Klaster tahlili Evropa mamlakatlarini 2010 soliq indikatorlaridan foydalangan holda fiskal tizimlar va soliq siyosati parametrlari bo'yicha tasniflaydi. Mamlakatlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash uchun ishlab chiqarish va import soliqlari, daromad va mulk solig'i, ijtimoiy to'lovlar kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Tahlil turli xil soliqlarning YaIMga nisbatlarini va Evropadagi hukmron soliq turlarini aks ettiruvchi turli klasterlarni ochib beradi[6]. (Merkulova va Nikolaeva, 2022).

J.Smit badavlat shaxslar uchun soliq tahlilining ilg'or usullarini taqqoslaydi va ularning soliq yukini kamaytirishga ta'sirini ta'kidlaydi. Soliqdan samarali investitsiyalar, xayriya yordami va soliq yo'qotishlarini yig'ish kabi usullar badavlat shaxslarga soliq holatini optimallashtirishga va soliq majburiyatlarini yumshatishga yordam beradi. Ushbu qiyosiy tahlil badavlat shaxslarning soliq natijalarini oshirish va ularning boyliklarini saqlab qolishda soliq tahlilining imkoniyatlarini ko'rsatadi[7].

I.A.Simanova, S.N.Klochkolar soliq tahliliga mikro darajadagi tahlil sifatida qarab, shu bo'yicha ta'riflarini keltirib o'tishgan: "Mikro darajadagi soliq tahlili - bu korxonaning soliq to'lovlarini rejalashtirish va prognoz qilish o'rtasidagi bog'liqlik, soliqqa tortishning xo'jalik yurituvshi sub'ektning moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganishga va korxonaning soliq oqimlari o'rtasidagi aloqani o'rnatishga imkon beradigan usullar to'plami"[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, soliq tahlili bo'yicha nazariyalari va tamoyillari hisoblanadi. Soliqqa tortish nazariyasi bo'yicha nazariy asoslar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida soliq tahlili bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlillar va asosiy natijalar. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda soliq tahlili va fiskal siyosatning samaradorligi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Soliq tahlili — bu soliq tizimi, soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligidan samaradorligini baholash, ularning iqtisodiyotga, budjetga va xo'jalik subyektlariga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish jarayonidir.

Ya'ni, bu jarayon orqali davlat va tadqiqotchilar quyidagilarni aniqlaydi:

- Soliq tushumlarining manbalari va tarkibi;
- Soliq siyosati samaradorligi;
- Soliq yukining adolatli taqsimlanishi;
- Soliq imtiyozlari ta'siri;

Soliq tizimidagi muammo va zaif nuqtalar.

Soliq tahlilini amalga oshirishning bir qator usullari mavjud:

- Iqtisodiy-statistik usullar – korrelyatsiya, regressiya, dinamika qatorlari, trend tahlili.

- Qiyosiy tahlil – turli vaqtlar yoki mamlakatlar bo'yicha soliq ko'rsatkichlarini solishtirish.

- Modellashtirish – soliq o'zgarishi natijasida YaIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasiga ta'sirni baholash.

- Normativ usul – amaldagi natijalarni belgilangan me'yorlar yoki qonunlar bilan taqqoslash.

- Ssenariy tahlili – “agar” modellari asosida soliq siyosatining turli variantlarini baholash.

Soliq tahlilining ahamiyati soliq tizimining samaradorligi va barqarorligini baholashda, Davlatga iqtisodiy siyosatni optimallashtirish imkoniyatida, investorlar va tadbirkorlar uchun soliq xavfini kamaytirishda, soliq organlari faoliyatini ilmiy asosda baholash imkonini yaratishda hamda soliq siyosatini ochiq va shaffof qilishga xizmat qilishida ko'rinadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, soliq siyosatini takomillashtirish ichki resurslarni safarbar etish, qashshoqlik darajasini pasaytirish hamda mamlakatlar duch kelayotgan o'ziga xos iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Fiskal siyosatning samaradorligini tahlil qilish hukumat qarorlarining iqtisodiy natijalarga ta'sirini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'nalishdagi tadqiqotlar soliq tizimi tuzilmasi, davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarni aniqlash hamda ularning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholash imkonini beradi.

F.I.Isayev o'zining ilmiy ishlarida soliq tahliliga quyidagi ta'rifni keltirgan: “Soliq tahlili deganda-mamlakat byudjeti daromad qismini shakllantirishda, soliq va yig'implarni rejalashtirishda, tushumlarni prognoz qilishda qo'llaniladigan usullar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga soliq xarajatlarini ta'sirini hisoblash usullari tushuniladi”[9].

Bizning fikrimizcha soliq tahliliga ta'rif berishda soliq to'lovchi va soliq xizmati organlari nuqtai nazardan yondashish zarur. F.I.Isayev tomonidan berilgan ta'rif soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tahlilni ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda soliq organlari nuqtai nazarida soliq tahlilining quyidagi ta'rifini shakllantirdik: “Soliq tahlili- bu soliq va yig'implar bo'yicha tushumlarni rejalashtirish, prognozlashtirish, soliq qarzlarini optimallashtirish va soliq auditini o'tkazishda foydalaniladigan usullar va dasturiy mahsullar majmuasidir”.

Soliqlarni tahlil qilish, odatda, mijozlarga amaldagi soliq qonunlari va qoidalariga muvofiq soliq deklaratsiyalarini tuzishda yordam berish uchun buxgalteriya hisobi

tamoyillarini chuqur anglashni talab qiladi. Bu yo'nalishdagi mutaxassislar, odatda, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish, jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar faoliyatini baholash va ularni soliq tekshiruvlariga tayyorlash sohasida yuqori malakaga ega bo'ladilar.

Soliq tahlili soliq majburiyatlarini to'lamaslikka olib keluvchi sabablarni aniqlash bilan birga, soliq bazasini shakllantirishga ta'sir etuvshi omillarni ham ochib beradi. Bu jarayon hisobot yili davomida izchil ravishda amalga oshirilib, soliq majburiyatlari dinamikasini kuzatish, to'lanmagan summalarni aniqlash, soliq siyosatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish va ularning umumiy soliq yukiga ta'sirini baholash imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, Soliq tahlili - bu soliq va yig'imga bo'yicha tushumlarni rejalashtirish, prognozlashtirish, soliq qarzlarni optimallashtirish va soliq auditini o'tkazishda foydalaniladigan usullar va dasturiy mahsullar majmuasidir. U soliq tizimining iqtisodiy xulq-atvorga, bozordagi natijalarga va keng ma'noda ijtimoiy farovonlikka qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratilgan turli iqtisodiy metod va yondashuvlarni qamrab oladi.

Soliq tahlili – bu nafaqat iqtisodiy hisob-kitob, balki davlat boshqaruvidagi strategik qaror qabul qilish vositasi hamdir. Uning yordamida davlat soliq siyosati samaradorligini baholaydi, biznes muhitini rivojlantiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda soliq tahlilining ta'rifi quyidagicha: "Soliq tahlili — bu soliq to'lovchining soliq samaradorligi va soliq siyosatini tahlil qilish, soliqqa tortishning xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy holatiga qay darajada ta'sir qilishini aniqlash uchun foydalaniladigan usullar va va dasturiy mahsullar majmuasidir".

Tadqiqot jarayonida biz soliq tahlilida foydalaniladigan turli xil iqtisodiy modellar, jumladan, neoklassik yondashuv va xulq-atvor modellarini tahlil qildik. Ushbu modellar soliq to'lovchilarning soliq tizimidagi o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nguyen, P.T. (2023). The application of analytical procedures in Big Four audit firms in Vietnam, *Acc. Fin. Review*, 8(3), 82 – 99. [https://doi.org/10.35609/afr.2023.8.3\(3\)](https://doi.org/10.35609/afr.2023.8.3(3)).
2. Abdullatif, M., Banna, A., El-Sahsah, D., & Wafa, T. (2021). Exploring the application of analytical procedures by Jordanian external auditors. *Journal of Governance & Regulation*, 10(3), 44-53.
3. Michael Davis. *Tax Analysis and Tax Planning: A Synergistic Approach for Minimizing Tax Liabilities*. Taxation Today Publication: July 2017 Page: 56
4. Michael Davis. *Strategic Tax Planning: Unlocking Tax Savings through Comprehensive Tax Analysis*. Journal of Tax Planning and Compliance. September 2017 Page: 112
5. Sarah Lee. *The Impact of Tax Analysis on Small Business Taxation: Evidence from Empirical Studies*. Small Business Economics: September 2018 Page: 112
6. Merkulova, T., & Nikolaeva, O. (2022). Cluster analysis of tax indicators in European countries. *Bulletin of V. N. Karazin Kharkiv National University Economic Series*. <https://doi.org/10.26565/2311-2379-2022-102-08>.
7. John Smith. *Advanced Techniques in Tax Analysis for Wealthy Individuals: A*

Comparative Analysis. Journal of Wealth Management: January 2019 Page: 24

8.Симанова И.А., Ключко С.Н. Формирование и применение методики налогового анализа на предприятии /Экономическая наука и практика: материалы VI Междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2018 г.). Издательство Молодой ученый, 2018. — С. 51-56.

9. F.I.Isayev. Soliq tahlili - iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi. Monografiya. T.: "IQTISODIYOT". 2023-yil. 222 bet.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

